

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**"MA'NAVIYAT FIDOYISI" KO'KRAK NISHONINI TA'SIS ETISH TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydag'i PQ-4307-son **qaroriga** muvofiq "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni ta'sis etilganligi munosabati bilan respublikada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirish, yuksak ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish borasida fidokorona mehnat qilgan va samarali natijalarga erishgan fuqarolarni rag'batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Jurnalistlar ijodiy uyushmasining "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishonini O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi bayrami arafasida topshirish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2. Belgilab qo'yilsinki, "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni bilan mukofotlash Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining qarori asosida amalga oshiriladi.

3. Quyidagilar:

"Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni to'g'risida nizom **1- ilovaga** muvofiq;

"Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni va uning guvohnomasining tavsiflari **2** va **3- ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.

4. "Davlat belgisi" davlat-ishlab chiqarish birlashmasi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining buyurtmasiga muvofiq "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni va uning guvohnomasini tayyorlanishini belgilangan tartibda ta'minlasin.

5. "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni va uning guvohnomasini tayyorlash hamda mukofotlanganlarni taqdirlash bilan bog'liq xarajatlar Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining budjet va budgetdan tashqari mablag'lari, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga qoplanishi inobatga olinsin.

6. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zları qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Yoshlar siyosati, madaniyat, ma'naviyat, ommaviy axborot vositalari, ijodiy va jamoat tashkilotlari masalalari kotibiyatiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2019-yil 30-oktabr,  
897-son

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-oktabrdagi 897-son **qaroriga**  
**1-ILOVA**

**"Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni to'g'risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumi qoidalar**

1. Ushbu Nizom "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni (keyingi o'rinnarda ko'krak nishoni deb ataladi) bilan taqdirlash tartibini belgilaydi.

2. Ko'krak nishoni bilan respublikada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirish, yuksak ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish borasida fidokorona mehnat qilgan va samarali natijalarga erishgan fuqarolar taqdirlanadi.

Ko'krak nishoni bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslar ham taqdirlanishi mumkin.

3. Ko‘krak nishoni bilan taqdirlash tartibi ushbu Nizomga **ilova** qilingan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

## **2-bob. Ko‘krak nishoni bilan taqdirlash uchun hujjatlarni taqdim etish va ko‘rib chiqish**

4. Hududiy davlat organlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalari har yili 1-iyunga qadar ko‘krak nishoni bilan taqdirlash bo‘yicha takliflarni tegishlicha Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo‘limlariga (keyingi o‘rinlarda markazning hududiy bo‘limlari deb ataladi) taqdim etadi.

Respublika davlat organlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalari har yili 1-iyunga qadar ko‘krak nishoni bilan taqdirlash bo‘yicha takliflarni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markaziga (keyingi o‘rinlarda Markaz deb ataladi) taqdim etadi.

Nomzod bo‘yicha taqdim etilgan takliflarga ilova sifatida nomzod haqida ma’lumotnama, so‘nggi uch yil davomida u tomonidan jamiyatda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirish, yuksak ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirish borasida amalga oshirilgan ishlar taqdim etiladi.

5. Markazning hududiy bo‘limlari tomonidan nomzodlar bo‘yicha taqdim etilgan hujjatlar belgilangan tartibda o‘rganib chiqiladi va nomzodlar yuzasidan xulosalar har yili 25-iyunga qadar Markazga taqdim etiladi.

Markazning hududiy bo‘limlari rahbarlari ushbu nizomning 4-bandi **birinchi xatboshida** belgilangan holatlarni istisno qilgan holda o‘z tashabbusiga ko‘ra ham nomzodlar to‘g‘risida har yili 25-iyunga qadar Markazga taklif kiritishi mumkin.

6. Ko‘krak nishoni bilan taqdirlashga oid takliflarni ko‘rib chiqish bo‘yicha Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari (keyingi o‘rinlarda Markaz rahbari deb ataladi) tomonidan komissiya (keyingi o‘rinlarda Komissiya deb ataladi) tashkil etiladi.

Komissiya yig‘ilishida nomzodlar bo‘yicha hujjatlar o‘rganilib, har yili 25-iyulga qadar eng munosib nomzodlar bo‘yicha yakuniy xulosa chiqariladi.

7. Komissiya tomonidan nomzodlarni ko‘krak nishoni bilan taqdirlashda quyidagilar inobatga olinadi:

nomzodning aholi o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yuksaltirishga bag‘ishlangan ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlari soni;

ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatli videoroliklarning tayyorlanganligi;

jamiyatda ma’naviy-ma’rifiy ishlar hamda ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishni targ‘ib qilish bo‘yicha turli innovatsion samarali usullarning ishlab chiqilganligi.

8. Ko‘krak nishoni bilan taqdirlash, istisno tariqasida, Markaz rahbarining buyrug‘iga asosan alohida holatlarda ham amalga oshirilishi mumkin.

## **3-bob. Ko‘krak nishoni bilan taqdirlash**

9. Markaz rahbarining ko‘krak nishoni bilan taqdirlash to‘g‘risidagi buyrug‘i har yili 25-avgustga qadar Komissiya xulosasi asosida chiqariladi.

10. Ko‘krak nishoni va uning guvohnomasi har yili 1-sentabr — Mustaqillik bayrami arafasida Markaz rahbari (yoki uning topshirig‘iga muvofiq boshqa mas’ul shaxslar) tomonidan tantanali vaziyatda topshiriladi.

11. Ko‘krak nishoni bilan taqdirlanganlar ro‘yxati Markazning internet jahon axborot tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida va boshqa axborot vositalarida e’lon qilinadi.

12. Ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida biryo‘la to‘lanadigan pul mukofoti beriladi.

Biryo‘la to‘lanadigan pul mukofoti Markazning budget va budjetdan tashqari mablag‘lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

13. Bir shaxs ko‘krak nishoni bilan bir marta taqdirlanadi.

14. Ko‘krak nishoni davlat mukofotlaridan keyin ko‘krakning chap tomoniga taqiladi.

## **4-bob. Yakunlovchi qoidalar**

15. Markaz ushbu Nizomga muvofiq ko'krak nishoniga tavsiya etilgan nomzodlarning hujjatlari xolis ko'rib chiqilishi uchun bevosita mas'uldir.

16. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

**"Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni to'g'risidagi nizomga  
ILOVA**

### **"Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlash**

#### SXEMASI

<b>Bosqichlar</b>	<b>Mas'ullar</b>	<b>Chora-tadbirlar</b>	<b>Muddatlar</b>
1-bosqich	Hududiy davlat organlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalari	Ko'krak nishoni bilan taqdirlash bo'yicha takliflarni tegishlicha Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlariga taqdim etish.	har yili 1-iyunga qadar
	Respublika davlat organlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalari	Ko'krak nishoni bilan taqdirlash bo'yicha nomzodlarni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markaziga taqdim etish.	
2-bosqich	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlari	Nomzodlar bo'yicha taqdim etilgan hujjatlarni belgilangan tartibda o'r ganib chiqish va nomzodlar yuzasidan xulosalarni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markaziga taqdim etish.	har yili 25-iyunga qadar
3-bosqich	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining ko'krak nishoni bilan taqdirlashga oid takliflarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyasi	Ko'krak nishoni bilan taqdirlash bo'yicha nomzodlar haqidagi tegishli hujjatlarni o'r ganib chiqish va yakuniy xulosa chiqarish.	har yili 25-iyulga qadar
4-bosqich	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi	Ko'krak nishoni bilan taqdirlash to'g'risida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining buyrug'ini chiqarish.	har yili 25-avgustga qadar
5-bosqich	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi	"Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlash.	har yili 1-sentabr — Mustaqillik bayrami arafasida

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-oktabrdagi 897-son qaroriga  
2-ILOVA

**"Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishonining**

## TAVSIFI

“Ma’naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoni (keyingi o‘rinlarda ko‘krak nishoni deb ataladi) diametri 34 millimetrlidir doira shaklida bo‘lib, mis qotishmasidan tayyorlanadi.

Ko‘krak nishonining old tomoni markazida ochiq holatdagi kitob fonida — Quyosh, Yer shari, O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘ining ko‘k, oq va yashil rangdagi tasmalari tasvirlangan.

Ko‘krak nishonining aylanasi bo‘ylab zarhal hoshiya bilan o‘ralgan tilla rang doirada balandligi 6 millimetrlidir bo‘lgan “MA’NAVIYAT FIDOYISI” so‘zlarini yozilgan.

Ko‘krak nishonining orqa tomoni markazida besh qatorda harflarning balandligi 2 millimetrlidir bo‘lgan “MA’NAVIYAT”, “SONASIGA”, “QO‘SNGAN”, “MUNOSIB NISSASI”, “UCNUN” so‘zlarini joylashgan.

Ko‘krak nishonining qalinligi — 2,2 millimetrlidir. Tasvirlar va yozuvlar qavariqdirdi.

Ko‘krak nishoni old va orqa tomonlarining chetlari qavariq doira bilan o‘ralgan.

Ko‘krak nishoni halqa va ilmoqchalar yordamida to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi qadag‘ichga ulangan.

Qadag‘ichning eni — 26 millimetrlidir, bo‘yi — 17 millimetrdan iborat. Qadag‘ich eni 22 millimetrlidir shoyi lenta bilan qoplangan bo‘lib, lentaning markazidan eni 8 millimetrlidir ko‘k yo‘l o‘tgan. Uning har ikki tarafidan eni 2 millimetrlidir ikkita yashil yo‘l va eni 3 millimetrlidir bo‘lgan oq rangdagi yo‘llar tushirilgan.

Qadag‘ichning orqa tomoniga ko‘krak nishonini kiyimga taqib qo‘yish uchun to‘g‘nog‘ich ko‘rinishidagi moslama o‘rnatalilgan.



Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-oktabrdagi 897-sod qaroriga  
3-ILOVA

## “Ma’naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoni guvohnomasining

## TAVSIFI

“Ma’naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoni guvohnomasi (keyingi o‘rinlarda guvohnoma deb ataladi) 160x110 millimetrlidir o‘lchamdagida kitobcha shaklida bo‘lib, 240 g/kv.m. qalinlikdagi ofset qog‘ozdan tayyorlanadi.

Guvohnomaning tashqi tomoni (birinchi va to‘rtinchi betlari) ko‘k rangda bo‘lib, pylonka bilan qoplangan.

Guvohnomaning birinchi beti eni 7,5 millimetrlidir, ichki burchaklari aylana shaklida bo‘lgan to‘q ko‘k rangli hoshiya bilan o‘ralgan.

Guvohnomaning yuqori chekkasidan (birinchi beti) 35 millimetrlidir pastda, markazda oralig‘i 3,5 millimetrlidir ikki satrdan iborat matn joylashgan. Birinchi satrda “MA’NAVIYAT”, ikkinchi satrda “FIDOYISI” (katta harflarda, “Times new Roman Bolt” shrifti, 14 kegl), uchinchi satrda “ko‘krak nishoni” (“Times new Roman Bolt” shrifti, 14 kegl) so‘zlarini yozilgan. Undan 6 millimetrlidir pastda “GUVONNOMASI” (katta harflarda, “Times new Roman Bolt” shrifti, 17 kegl) so‘zi yozilgan.

Yozuvlar to‘q ko‘k rangda aks ettirilgan.

Guvohnomaning ichki tomoni (ikkinchi va uchinchi betlari) “Tangir” tasviri tushirilgan och havo rangda bo‘lib, ofset usulida chop etilgan.

Ichki tomonining chap qismida (ikkinchi beti), markazda ko'krak nishonining asliga teng o'lchamdag'i rangli tasviri aks ettirilgan.

Guvohnomaning ichki o'ng tomoni (uchinchi beti) yuqori chekkasidan 8 millimetr pastda, markazda "GUVONNOMA" (katta harflarda, "Times new Roman Bolt" shrifti, 10 kegl) so'zi hamda guvohnomaning tartib raqami uchun "№" belgisi va 15 millimetrlı chiziq joylashgan.

"GUVONNOMA" so'zidan 11 millimetr pastda mukofotlangan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismini qayd etish uchun oralig'i 8 millimetrlı uchta chiziq tortilgan.

Pastki chiziqdan 6 millimetr quyida, markazda oralig'i 2 millimetrlı ikki satrdan iborat matn joylashgan. Birinchi satrda "Respublika Ma'naviyat", ikkinchi satrda "va ma'rifat markazi" ("Times new Roman Bolt" shrifti, 10 kegl) so'zlarini yozilgan.

Undan 5 millimetr pastda oralig'i 4 millimetr bo'lgan ikki satrdan iborat matn joylashgan. Birinchi satrda "20\_\_ y. \_\_" \_\_\_\_ dagi", ikkinchi satrda "\_\_\_\_-sonli buyrug'iga asosan" ("Times new Roman Bolt" shrifti, 10 kegl) so'zlarini yozilgan.

Undan 5 millimetr pastda, markazda oralig'i 5 millimetrlı uch satrdan iborat matn joylashgan. Birinchi satrda "MA'NAVIYAT", ikkinchi satrda "FIDOYISI" (katta harflarda, "Times new Roman Bolt" shrifti, 12 kegl), uchinchi satrda "ko'krak nishoni bilan mukofotlandi" ("Times new Roman Bolt" shrifti, 10 kegl) so'zlarini yozilgan.

So'nggi so'zlardan 9 millimetr pastda, chap tomonda "Markaz rahbari" ("Times new Roman Bolt" shrifti, 10 kegl) so'zlarini yozilgan.

“MA’NAVIYAT  
FIDOYISI”  
ko‘krak nishoni

**GUVOHNOMASI**

GUVOHNOMA № \_\_\_\_\_



Respublika Ma’naviyat  
va ma’rifat markazi rahbarining

20\_\_\_ y. «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi  
\_\_\_\_\_ -sonli buyrug’iga asosan

**“MA’NAVIYAT  
FIDOYISI”**

ko‘krak nishoni bilan mukofotlandi

Markaz rahbari

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2019-y., 09/19/897/3976-son)*